

SAID AHMAD HIKOYALARIDA HAYVONLAR OBRAZI

Barakayeva Shodiya

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15540095>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning hikoyalarida hayvonlar obrazining o'rni va badiiy ahamiyati o'rganiladi. Muallif hayvonlarni nafaqat atrof-muhit elementi sifatida, balki insoniy xususiyatlarni, ijtimoiy va ma'naviy muammolarni aks ettiruvchi ramz sifatida yaratadi. Hayvonlarning xarakterlari va ularning voqealardagi roli orqali inson tabiatining murakkab jihatlari, ichki kechinmalar va jamiyat bilan munosabatlar tasvirlanadi. Said Ahmad hayvonlar tilidan foydalanib, o'quvchini voqelikning chuqur qatlamlariga olib kiradi, hayvonlar obrazlari orqali inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni hamda hayvonlarning ma'naviy donoligini ifoda etadi. Maqola muallifning badiiy uslubi, hayvonlar obrazini yaratishdagi falsafiy yondashuvi va ularning asarlar mazmunidagi o'rni haqida tahliliy fikrlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Ot, it, hadis, sura, yozuvchi, vafodor, obraz, timsol, hikoya, tasvir va boshqalar.

Аннотация. В этой статье исследуется роль и художественное значение образа животных в рассказах Саида Ахмада. Автор создает животных не только как элемент окружающей среды, но и как символ, отражающий человеческие качества, социальные и духовные проблемы. Через характеры животных и их роли в сюжетах изображаются сложные стороны человеческой натуры, внутренние переживания и отношения с обществом. Используя язык животных, Саид Ахмад погружает читателя в глубокие слои реальности, выражая через образы животных органическую связь человека с природой и духовную мудрость животных. В статье представлены аналитические размышления о художественном стиле автора, его философском подходе к созданию образов животных и их месте в содержании произведений.

Ключевые слова: Лошадь, собака, хадис, сура, писатель, верующий, образ, символ, история, картина и т. д.

Abstract. This article explores the role and artistic significance of animal imagery in Said Ahmad's stories. The author portrays animals not only as elements of the environment but also as symbols reflecting human traits, social, and spiritual issues. Through the characters of animals and their roles in the narratives, the complex aspects of human nature, inner emotions, and relationships with society are depicted. Using the voice of animals, Said Ahmad leads the reader into the deeper layers of reality, expressing the intrinsic connection between humans and nature as well as the spiritual wisdom of animals. The article presents analytical insights on the author's artistic style, his philosophical approach to creating animal imagery, and their place in the meaning of his works.

Keywords: Horse, dog, hadith, surah, writer, faithful, image, symbol, story, picture, etc.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Said Ahmad o'zining chuqur hayotiy kuzatuvlari, sodda, ammo mazmunli uslubi bilan xalq qalbidan chuqur joy olgan adibdir. Uning hikoyalari hayotga yaqinligi, xalqona tasvirlari, obrazlar boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu hikoyalarda insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o'zgarishlar bilan birga hayvonlar obrazi orqali ham muhim ma'naviy-axloqiy g'oyalar ifodalanadi. Uning "Ot bilan suhbat" hikoyasi o'zbek adabiyotida hayvon obrazining falsafiy, ramziy, axloqiy ma'nolarga boy tarzda

berilgan namunalaridan biridir. "Ot bilan suhbat" hikoyasida otning ta'riflari keltirilgan jumlarlar diqqatga sazovor. Unda sobiq jangchi hozirgi ayg'irni "konchi ot" deb ataydi. Ot "bo'ychan, o'ychan, qora, qaddi tik, tanasi baquvvat, ko'zlarida tushunib bo'lmas ma'no bor" deya tasvirlanadi. Bu yerda "qora" so'zining ishlatilishi o'quvchiga biroz erish tuyulishi mumkin. Biroq hikoyada konchi otlarning umumiy tasvir va tavsifi berilgan bo'lib, bu orqali o'quvchi voqealar kechayotgan muhitga chuqur kirib boradi. Hikoyaning yana bir qiziq jihati shundaki, unda ot nafaqat rivoyatchi (roviy), balki yozuvchi vazifasini ham bajaradi. Bu esa hikoyaga o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Biz buni ot orqali insoniyatga murojaat qilinayotgan, ot bilan yaxlitlikda bo'lgan badiiy ifoda deb talqin qilishimiz mumkin. Shuningdek, ot tilidan insonlarga baho beriladi. Muallif hayvonlar orqali insonlar haqida fikr bildiradi. Bu esa hayvonlarning insonlarni chuqur anglash qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Muallif kondagi hayotni otlarning ko'zi bilan tasvirlaydi. Bu orqali Said Ahmadning hayvonlarga, xususan otlarga nisbatan o'zgacha mehr va e'tibor bilan qarashini sezish mumkin. Yozuvchi hikoyada eng oddiy detallarni ham badiiy ruhda ifodalay olgan. U har bir voqea-hodisaga o'ziga xos obrazlilik va teranlik baxsh etgan¹.

Said Ahmadning ushbu hikoyasida voqea harakatidan ko'ra tasvir yetakchi o'rin tutadi. Muallif qahramonlarni faol harakatga jalb qilishdan ko'ra, tabiat manzaralari, hayvonlar tilidan voqeani bayon etish orqali o'z g'oyasini yetkazishga intiladi. Bu jihatdan asarni naturalizm an'alarining davomchisi sifatida baholash mumkin. Chunki hikoyada markaziy obraz sifatida aynan hayvonlar ishtirok etadi va ular orqali insonlarga xos xatti-harakat, fazilat hamda kamchiliklar gavdalantiriladi. Asarda hayvonot olamiga xos ramzlar, timsollar yordamida emas, balki insoniy fazilatlar va illatlar hayvonlar timsolida ochib beriladi. Bu esa asarning mazmuniga chuqurroq kirib borishga, uni inson ruhiyati bilan bog'lashga xizmat qiladi. Said Ahmad ijodiga xos psixologik chuqurlik, nozik lirizm, yuksak badiiy uslub va falsafiy mushohadalar bu hikoyada ham o'z ifodasini topgan. Bu jihatlar har qanday o'quvchining estetik ehtiyojini qondira oladi. Shu bilan birga, hikoyaning ayrim epizodlari o'quvchiga biroz g'aliz yoki murakkab tuyulishi mumkin. Ammo bu holat muallifning badiiy maqsadidan kelib chiqqan holda, asar mazmunining chuqurligi bilan izohlanadi. Said Ahmadning hikoyalari san'at darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, demak, uning boshqa janrlardagi asarlari qanday bo'lishi mumkin, degan tabiiy savol o'quvchida paydo bo'ladi.

Asarda ishtirok etgan ot obrazini biz xarakter va tip o'rtasidagi murakkab qahramon sifatida baholashimiz mumkin. U oddiy hayvon emas, balki insoniy fazilatlarini ifodalovchi ramziy obraz darajasiga ko'tarilgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, hikoyalarni tahlil qilish jarayonida biz tadrijiylikka — bosqichma-bosqich tahlilga alohida e'tibor qaratdik. Avvalo, hikoyanavislikda o'z uslubi va adabiy yo'nalishiga ega bo'lgan mualliflarning asarlarini saraladik, ularni tahlilga tortdik. Hikoyalarni ma'lum adabiy metodlar, til xususiyatlari nuqtai nazaridan baholadik.

Said Ahmad ijodidagi hikoyalar — ayniqsa, o'zidagi didaktik ruh, zamonaviylik, hamda falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ularning tag zamirida chuqur ijtimoiy va ma'naviy g'oyalar mujassam. Biz bu jihatlar asosida muallif hikoyalarini tahlil qilib, o'zimizning xulosalarimizni berdik. Bundan tashqari, ot obrazining yana bir yorqin talqini Abdulla Qahhorning "Uloqda" hikoyasida namoyon bo'ladi. Bu hikoyada bola va ot obrazlari do'st sifatida gavdalantirilgan. Voqealar bolaning og'zi orqali bayon qilinadi, ya'ni roviy bolaning o'zi bo'ladi. Bola otni nafaqat hayvon, balki eng yaqin sirdosh, mehribon do'st deb biladi. U otga

¹ T. Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 40 b.

bo'lgan mehrini quyidagicha ifodalaydi:

“Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim. Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi to'ralarnikidek bo'lib ketdi...”².

Bu ifodalar orqali bola otga chin yurakdan mehr qo'yganini his etamiz. Hatto ot ovqat yemasa, bola ham ovqatlanmay qo'yadi — bu esa ularning o'zaro bog'liqligi, bolaning otga bo'lgan mehr-muhabbatining chinakam samimiyligini yaqqol ko'rsatadi.

Qorako'z majnun hikoyasida it obrazi birinchi planga chiqadi. Hikoya avvalida Qur'oni karimdan bir oyat keladi: «Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».

(Baqara surasi, 217-oyat.)

Hadisi sharifdan: «Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «Ashobi kahfning vafodor iti dir». (Al-jome al-Kabir.)

“Qorako'z majnun” — Said Ahmadning mustaqillik yillarida yozilgan eng sara hikoyalaridan biridir. Hikoyaning syujeti murakkab bo'lmasa-da, unda insoniy tuyg'ularning teran tasviri berilgan. Asarda keksayib qolgan Saodat aya bir necha o'n yildan beri harbiy xizmatga ketib, boshqa yurtida oila qurib, bola-chaqali bo'lib ketgan o'g'li Bo'rixonni kutadi. Har kuni sahar namozida Xudoga yolvorib, uni eslaydi, sog'inadi. Saodat ayaning xarakterida o'zbekning chin musulima buvilariga xos fazilatlar mujassam: u nafaqat bu dunyo, balki u dunyo haqida ham chuqur mulohaza yuritadi, har bir ishni sabr, shukr va e'tiqod bilan qarshi oladi. Bu obraz orqali muallif milliy mentalitet, ona mehri, sadoqat va e'tiqod singari ma'naviy qadriyatlarni ko'rsatishga intiladi³.

O'g'lining xabarini nevarasi Anvardan eshitgan kampir mulzam bo'ladi. Adib kampirdagi bu o'zgarishni: «Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi», degan tarzda bayon qiladi. Kunlarning birida Saodat aya iti Qorako'z bilan qizining uyiga qarab yo'lga chiqadi. Ularning borish va kelish jarayoniga diqqat qarating. Yo'l bo'yi adib itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandlig-u xafagarchiligi, deylik, «bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik» qilishlarini, yo'lda uchragan mushuklarni «tiraqaylatib quvishi», «daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab» akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi.

Said Ahmad hikoyalarida hayvonlar obrazi inson fe'l-atvori va jamiyatdagi turli holatlarni ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Yozuvchi hayvonlar orqali insoniy fazilatlar, kamchiliklar, axloqiy masalalar va ijtimoiy muammolarni ramziy tarzda ifodalaydi. Bu obrazlar o'quvchini chuqur o'ylantirishga undaydi va voqealarga o'ziga xos yondashuv beradi.

² N.Shukurova va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T., “O'qituvchi”, 1979, 53 b.

³ Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971, 75 b.

REFERENCES

1. Normatov U., Said Ahmad [Adabiy portret], T., 1971; G'afurov I., Prozaning shoiri, T., 1984.
2. Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982; Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000; Qorako'z majnun, T., 2001; Kiprikda qolgan tong, T., 2003.
3. V.G.Belinskiy. Adabiy orzular. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
4. N.Shukurova va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 53-59-betlar.
5. T.Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1979, 40-49-betlar.
6. www.ziyonet.uz
7. www.turklib.uz
8. www.uz.wikipedia.org
9. www.kh-davron.uz
10. www.wikipedia.org